



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

Andijon viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23,8** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,5** mingtaga kamaygan yoki **12,8 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,4** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-martida **1,0** ming-ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,7 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2023-y. | | 2024-y. |
|---------|------------------|---------|
| 39 038 | Andijon viloyati | 23 755 |
| 7 231 | Andijon sh. | 6 498 |
| 2 470 | Asaka | 2 077 |
| 2 155 | Andijon | 2 003 |
| 1 879 | Shahrixon | 1 603 |
| 1 752 | Baliqchi | 1 336 |
| 1 514 | Oltinko'l | 1 255 |
| 1 502 | Izobskan | 1 178 |
| 1 302 | Marhamat | 1 141 |
| 1 160 | Jalaquduq | 1 066 |
| 1 200 | Qo'rg'ontepa | 1 046 |
| 1 290 | Xo'jaobod | 1 031 |
| 1 154 | Paxtaobod | 984 |
| 695 | Bo'ston | 794 |
| 828 | Buloqboshi | 733 |
| 608 | Ulug'nor | 588 |
| 530 | Xonobod sh. | 422 |

2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **23 755** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 005** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida **6 498** tani yoki jamiga nisbatan **27,4 %** ni tashkil etdi.

1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*


| | |
|--------------|------|
| Ulug'nor | 22,2 |
| Bo'ston | 14,0 |
| Andijon sh. | 13,5 |
| Xo'jaobod | 13,0 |
| Jalaquduq. | 9,4 |
| Xonobod sh | 9,4 |
| Andijon | 9,2 |
| Marhamat | 9,1 |
| Baliqchi | 9,0 |
| Qo'rg'ontepa | 8,6 |
| Paxtaobod | 8,3 |
| Oltinko'l | 7,9 |
| Asaka | 7,7 |
| Buloqboshi | 6,9 |
| Izboskan | 6,5 |
| Shahrixon | 6,2 |

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-aprel holatiga, birlikda



2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,4** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Qo'rg'ontepa tumanida **22,1** birlik, Izboskan tumanida **21,7** birlik, Paxtaobod tumanida **21,3** birlik, Buloqboshi tumanida **20,9** birlik va Shahrixon tumanida **20,3** birlikka yetdi.




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Ulug'nor tumani
– 22,2 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Jalaquduq tumani
– 9,4 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Shahrixon tumanida
– 6,2 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida tumanida 22,2 birlik, Bo'ston tumanida 14,0 birlik, Andijon shahrida 13,5 birlik, Xo'jaobod tumanida 13,0 birlik, Jalaquduq tumanida 9,4 birlik, Xonobod shahrida 9,4 birlik, Andijon tumanida 9,2 birlik, Marhamat tumanida 9,1 birlik, Baliqchi tumanida 9,0 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarini ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Ulug'nor tumani

22,2

Andijon shahri

13,5

Jalaquduq tumani

9,4

Bo'ston tumani

14,0

Xo'jaobod tumani


13,0

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

| 2023-y. | | 2024-y. |
|---------|--------------|---------|
| 239 | Andijon sh. | 212 |
| 133 | Andijon | 98 |
| 93 | Asaka | 70 |
| 59 | Shahrixon | 70 |
| 52 | Qo'rg'ontepa | 66 |
| 76 | Oltinko'l | 62 |
| 60 | Izboskan | 61 |
| 56 | Baliqchi | 58 |
| 50 | Marhamat | 56 |
| 50 | Xo'jaobod | 51 |
| 37 | Buloqboshi | 47 |
| 41 | Bo'ston | 44 |
| 37 | Ulug'nor | 36 |
| 34 | Jalaquduq | 35 |
| 42 | Paxtaobod | 21 |
| 7 | Xonobod sh. | 18 |

2024-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Andijon shahri (**21,1** %), Andijon tumani (**9,8** %), Asaka tumani (**7,0** %), Shahrixon tumani (**7,0** %), Qo'rg'ontepa tuman (**6,6** %), Oltinko'l tumani (**6,2** %) hamda Izboskan tumani (**6,1** %) hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (1 005 ta), savdoda (416 ta) hamda Boshqa xizmatlar sohasida (240 ta) yangidan tashkil etilgan.


Viloyatimizning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Andijon shahrida (212 ta), Andijon tumanida (98 ta) hamda Asaka tumanida (70 ta) yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **7 466** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangitdan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 987** (yoki **40,0** %) ta, sanoat sohasida – **1 722** (yoki **23,1** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 343** (yoki **18,0** %) ta, xizmat sohasida – **924** (yoki **12,4** %) ta va qurilish sohasida – **490** (yoki **6,6** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2023-y. ■ 2024-y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024-yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **56,4** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **6,1** % ga kamaygan.




2023-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da



2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qurilish **98,4** % ni, yo'lovchi tashish **97,1** % ni, qishloq xo'jaligi **96,1** % ni, yo'lovchi aylanmasi **94,8** % ni, chakana savdo **93,8** % ni, yuk aylanmasida **77,9** % ni tashkil etdi.

Tarmoqlarning YAHMdagi ulushi, % da




Yuqori ko'rsatkich


Past ko'rsatkich

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

| | |
|--------------|-------|
| Andijon sh | 620,2 |
| Baliqchi | 611,9 |
| Qo'rg'ontepa | 441,2 |
| Shahrixon | 377,5 |
| Xo'jaobod | 330,1 |
| Jalolquduq | 225,7 |
| Andijon | 177,5 |
| Asaka | 150,8 |
| Izboskan | 143,5 |
| Ulug'nor | 131,5 |
| Buloqboshi | 129,5 |
| Oltinko'l | 124,5 |
| Xonobod sh | 89,1 |
| Paxtaobod | 84,2 |
| Marhamat | 77,6 |
| Bo'ston | 71,5 |

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 786,4** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (**620,2** mlrd. so'm), Baliqchi (**611,9** mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (**441,2** mlrd. so'm), Shahrixon (**377,5** mlrd. so'm), Xo'jaobod (**330,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ston tumanida (**71,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2024-yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **21,8 %** ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

| | |
|--------------|-------|
| Buloqboshi | 100,0 |
| Izboskan | 100,0 |
| Baliqchi | 82,5 |
| Ulug‘nor | 81,2 |
| Shahrixon | 71,4 |
| Andijon | 69,2 |
| Jalolquduq | 68,6 |
| Qo‘rg‘ontepa | 56,1 |
| Xo‘jaobod | 53,8 |
| Bo‘ston | 48,8 |
| Oltinko‘l | 42,7 |
| Marhamat | 35,1 |
| Paxtaobod | 34,7 |
| Andijon sh | 33,7 |
| Xonobod sh | 28,9 |
| Asaka | 1,5 |

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi (**100,0 %**), Izboskan (**100,0 %**), Baliqchi (**82,5 %**), Ulug‘nor (**81,2 %**), Shahrixon (**71,4 %**), Andijon (**69,2 %**), Jalolquduq (**68,6 %**), Qo‘rg‘ontepa (**56,1 %**), Xo‘jaobod (**53,8%**) hamda Bo‘ston (**48,8 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

| | | |
|--------------|-------|------|
| Jalolquduq | 42,5 | 76,9 |
| Ulug'nor | 23,5 | 82,4 |
| Oltinko'l | 56,2 | 86,6 |
| Andijon sh | 481,5 | 94,2 |
| Andijon | 166,4 | 94,2 |
| Buloqbooshi | 25,9 | 94,7 |
| Asaka | 58,5 | 96,0 |
| Qo'rg'ontepa | 45,9 | 96,2 |
| Shahrixon | 118,6 | 96,9 |
| Xo'jaobod | 43,4 | 97,2 |
| Baliqchi | 36,6 | 98,0 |
| Izboskan | 67,0 | 98,3 |
| Xonobod sh | 44,2 | 99,0 |
| Bo'ston | 59,9 | 99,0 |
| Paxtaobod | 56,5 | 99,0 |
| Marhamat | 71,3 | 99,1 |

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 397,8 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 94,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (481,5 mlrd. so'm), Andijon (166,4 mlrd. so'm), Shahrixon (118,6 mlrd. so'm), Marhamat (71,3 mlrd. so'm), Izboskan (67,0 mlrd. so'm), Bo'ston (59,9 mlrd. so'm) hamda Asaka (58,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 123,7** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **68,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **186,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buloqboishi tumani (**1 478,6** mlrd. so'm), Shahrixon tuman (**383,5** mlrd. so'm), Andijon tuman (**366,3** mlrd. so'm), Andijon shaxar (**232,8** mlrd. so'm), Paxtaobod tuman (**219,0** mlrd. so'm), Asaka tuman (**185,5** mlrd. so'm), Baliqchi tuman (**175,9** mlrd. so'm) hamda Jalolquduq tumanida (**166,3** mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **3 391,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **96, %** ini tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **103,1 %** ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Asaka (**191,1** mlrd. so‘m), Shahrixon (**310,6** mlrd. so‘m), Marhamat (**277,8** mlrd. so‘m), Jalolquduq (**276,1** mlrd. so‘m), Qo‘rg‘ontepa (**253,6** mlrd. so‘m) hamda Buloqboshi (**243,1** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.


2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

| | | |
|--------------|-------|------|
| Andijon sh. | 191,1 | 82,7 |
| Asaka | 337,3 | 90,2 |
| Ulug‘nor | 102,8 | 91,2 |
| Bo‘ston | 122,5 | 96,8 |
| Xo‘jaobod | 115,1 | 97,6 |
| Paxtaobod | 242,1 | 98,5 |
| Andijon | 234,5 | 98,6 |
| Qo‘rg‘ontepa | 253,6 | 98,9 |
| Oltinko‘l | 203,6 | 99,3 |
| Izboskan | 218,8 | 99,4 |
| Buloqboshi | 243,1 | 99,4 |
| Baliqchi | 224,6 | 99,4 |
| Marhamat | 277,8 | 99,5 |
| Jalolquduq | 276,1 | 99,5 |
| Shahrixon | 310,6 | 99,6 |
| Xonobod sh. | 38,1 | 99,9 |

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 658,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,0 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **110,4 %** ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

| | | |
|--------------|---------|------|
| Xonobod sh | 33,4 | 93,9 |
| Bo'ston | 76,5 | 96,0 |
| Ulug'nor | 82,4 | 99,0 |
| Jalolquduq | 102,4 | 90,9 |
| Buloqbooshi | 107,9 | 97,4 |
| Izboskan | 150,5 | 97,0 |
| Paxtaobod | 185,5 | 96,2 |
| Marhamat | 194,9 | 97,8 |
| Qo'rg'ontepa | 208,7 | 98,9 |
| Xo'jaobod | 262,1 | 98,1 |
| Oltinko'l | 315,8 | 97,7 |
| Baliqchi | 401,2 | 97,1 |
| Andijon | 408,6 | 95,8 |
| Shahrixon | 438,9 | 98,2 |
| Asaka | 481,0 | 97,3 |
| Andijon sh | 1 208,5 | 82,9 |

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**1 208,5** mlrd. so'm), Asaka (**481,0** mlrd. so'm), Shahrixon (**438,9** mlrd. so'm), Andijon (**408,6** mlrd. so'm), Baliqchi (**401,2** mlrd. so'm), Oltinko'l (**315,8** mlrd. so'm) va Xo'jaobod (**262,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

| | |
|--------------|---------|
| Andijon sh. | 1 478,8 |
| Andijon | 244,3 |
| Asaka | 241,9 |
| Baliqchi | 202,7 |
| Izboskan | 193,7 |
| Jalolquduq | 184,9 |
| Oltinko'l | 177,8 |
| Shahrixon | 176,2 |
| Marhamat | 173,0 |
| Xo'jaobod | 171,6 |
| Qo'rg'ontepa | 156,9 |
| Paxtaobod | 127,7 |
| Buloqboshi | 115,9 |
| Xonobod sh | 96,9 |
| Bo'ston | 73,6 |
| Ulug'nor | 64,5 |

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 880,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,2 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **112,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**1 478,8** mlrd. so'm), Andijon (**244,3** mlrd. so'm), Asaka (**241,9** mlrd. so'm), Baliqchi (**202,7** mlrd. so'm), Izboskan (**193,7** mlrd. so'm), Jalaquduq (**184,9** mlrd. so'm) va Oltinko'l (**177,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-mart oylarida)

| | | |
|---------|--|------|
| 1 654,6 | Savdo xizmatlari | 42,6 |
| 1 208,7 | Transport xizmatlari | 31,2 |
| 288,8 | Shaxsiy xizmatlar | 7,4 |
| 129,3 | Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 3,3 |
| 124,8 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 3,2 |
| 120,2 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 3,1 |
| 108,3 | Ijara xizmatlari | 2,8 |
| 74,0 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 1,9 |
| 72,9 | Boshqa xizmatlar | 1,9 |
| 35,5 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 0,9 |
| 29,4 | Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 0,8 |
| 19,6 | Moliyaviy xizmatlar | 0,5 |
| 14,1 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 0,4 |

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **42,6** % (**1 654,6** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **31,2** % (**1 208,7** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **7,4** % (**288,8** mlrd. so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida **3,3** % (**129,3** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida **0,4** % (**14,1** mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh doll.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSh doll.

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **100,2** mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **37,1** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

| | | |
|--------------|------|-------|
| Xonobod sh | 0,01 | 2,2 |
| Baliqchi | 1,2 | 10,9 |
| Oltinko'l | 2,1 | 15,2 |
| Marhamat | 2,5 | 72,9 |
| Buloqboshi | 2,6 | 100,0 |
| Paxtaobod | 3,1 | 61,0 |
| Qo'rg'ontepa | 3,5 | 64,9 |
| Asaka | 3,6 | 3,1 |
| Andijon | 4,3 | 89,7 |
| Ulug'nor | 5,3 | 77,8 |
| Izboskan | 6,6 | 100,0 |
| Xo'jaobod | 6,7 | 42,0 |
| Bo'ston | 6,8 | 82,7 |
| Jalolquduq | 7,9 | 85,2 |
| Adijon sh | 13,3 | 59,0 |
| Shahrixon | 30,4 | 80,6 |


hajmi, mln. AQSh dollar

ulushi, % da

2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi tumanida – **100,0** %, Izboskan tumanida – **100,0** %, Andijon tumanida – **89,7** %, Jalolquduq tumanida – **85,2** %, Bo'ston tumanida – **82,7** %, Shahrixon tumanida – **80,6** %, Ulug'nor tumanida – **77,8** % va Marhamat tumanida – **72,9** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Xonobod shahrida – **0,01** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **156,0** mln. AQSh dollarini yoki jami importning **18,1** % ini tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'ston tumanida – **100,0** %, Buloqboshi tumanida– **100,0** %, Izboskan tumanida – **100,0** %, Ulug'nor tumanida – **100,0** %, Paxtaobod tumanida – **100,0** %, Shahrixon tumanida – **99,9** %, hamda Qo'rg'ontepa tumanida **97,6** % ni tashkil etdi.


| | |
|--------------|-------|
| Bo'ston | 100,0 |
| Buloqboshi | 100,0 |
| Jalolquduq | 100,0 |
| Izboskan | 100,0 |
| Ulug'nor | 100,0 |
| Paxtaobod | 100,0 |
| Shahrixon | 99,9 |
| Qo'rg'ontepa | 97,6 |
| Baliqchi | 87,9 |
| Oltinko'l | 62,5 |
| Xo'jaobod | 60,4 |
| Andijon | 56,3 |
| Andijon sh | 32,6 |
| Marhamat | 32,4 |
| Xonobod sh | 10,7 |
| Asaka | 0,7 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024-yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2** % ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,2** % ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **77,9** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9** % ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,1** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3** % ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,8** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,4** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024-yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 803 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 208 (25,9 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 549 (68,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 45 (5,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,3 % (340 ta), xizmatlar sohasida – 25,5 % (205 ta), sanoatda – 21,7 % (174 ta), qurilishda – 6,7 % (54 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,8 % (30 ta)ni tashkil etdi.

2024-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

| | | |
|-----|-------------|------|
| 109 | Andijon sh. | 13,6 |
| 84 | Andijon | 10,4 |
| 61 | Asaka | 7,6 |
| 46 | Baliqchi | 5,7 |
| 37 | Bo'ston | 4,6 |
| 31 | Buloqbo'shi | 3,9 |
| 53 | Izboskan | 6,6 |
| 32 | Jalaquduq | 4,0 |
| 46 | Marhamat | 5,7 |
| 71 | Oltinko'l | 8,8 |
| 39 | Paxtaobod | 4,9 |
| 40 | Qo'g'ontepa | 5,0 |
| 37 | Ulug'nor | 4,6 |
| 36 | Xo'jaobod | 4,5 |
| 21 | Xonobod sh. | 2,6 |
| 60 | Shahrixon | 7,5 |


Respondentlar soni

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Andijon shahri (**109** ta), Andijon (**84** ta), Oltinko'l (**71** ta), Asaka (**61** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **1 323** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **801** taga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan **522** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **504** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **444** ta yoki **60** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **82** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **64** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **18** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning I choragida **365** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **246** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **119** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning I choragida **552** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **116** ta yoki **116** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019-yilning I choragida **65** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **40** tani tashkil etib, **25** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **36,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **36,6** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **0,2** % ga ortgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **57,3** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **55,4** % yoki **1,9** % ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **6,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **8,0** % ga yetgan yoki **1,7** % ga ortgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **37,7 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **34,1 %** ga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan **3,6 %** ga ortgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **56,6 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **60,4 %** yoki **3,8 %** ga ortgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019-yilning I choragida **5,7 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,5 %** yoki **0,2 %** ga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **45,3 %** ni, Xizmatda – **26,6 %** ni, Sanoatda – **19,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi Savdo sohasida – **40,6 %** ni, Xizmatda – **26,1 %** ni, Sanoatda – **22,6 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi Savdoda – **45,5 %** ni, Sanoatda – **25,0 %** ni, Xizmatda – **20,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo – **44,1** % ni, xizmatlar sohasida – **26,7** % ni, va sanoatda – **18,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi Savdoda – **40,9** % ni, Xizmatda – **24,6** % ni, sanoatda – **24,2** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi Savdoda – **35,3** % ni, Sanoatda – **23,5** % Xizmatda – **23,4** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|--|---|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 31,0 | 62,6 | 6,4 |
| Band bo'lganlar soni | 11,4 | 83,2 | 5,3 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 28,9 | 62,7 | 8,4 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari | 23,3 | 70,8 | 5,9 |
| Raqobat muhiti | 36,0 | 58,8 | 5,2 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|--|-------------------------------------|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 41,9 | 55,4 | 2,7 |
| Band bo'lganlar soni | 19,8 | 77,3 | 2,9 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 33,7 | 61,6 | 4,7 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari | 28,4 | 67,2 | 4,4 |
| Raqobat muhiti | 37,2 | 59,0 | 3,9 |


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli